

SHAXS SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLAR

Imomova Zuhra Choriyevna

*Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani 1-sonli
maktab II-toifali amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxs shakllanish jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy omillar hamda shaxs rivojini ta'minlovchi psixologik shart-sharoitlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya va shaxsning faolligi shaxs kamolotidagi yetakchi omillar sifatida yoritib beriladi. Shuningdek, shaxs rivojida psixologik muhit, motivatsiya, emotsional holat va ijtimoiy munosabatlarning ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: shaxs, shaxs shakllanishi, irsiyat, muhit, tarbiya, psixologik shart-sharoitlar, motivatsiya, ijtimoiylashuv.

KIRISH

Shaxs shakllanishi murakkab va uzluksiz jarayon bo'lib, u biologik, ijtimoiy va psixologik omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Har bir inson tug'ilgan paytidan boshlab jamiyat ta'siri ostida rivojlanadi va asta-sekin ijtimoiy munosabatlar tizimida o'z o'rnini egallaydi. Zamonaviy psixologiya fanida shaxs rivoji masalasi dolzarb bo'lib, bu jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar:

1. Irsiyat omili

Irsiyat shaxs shakllanishining biologik asosi hisoblanadi. Insonning nerv tizimi turi, temperament, jismoniy rivojlanish darajasi irsiy yo'l bilan avlodlardan avlodga o'tadi. Biroq irsiyat shaxsning to'liq shakllanishini belgilab bermaydi, balki rivojlanish uchun imkoniyat yaratadi.

2. Ijtimoiy muhit

Ijtimoiy muhit shaxs rivojida yetakchi o'rin tutadi. Oila, maktab, tengdoshlar jamoasi, ommaviy axborot vositalari shaxs dunyoqarashi va xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sog'lom ijtimoiy muhit shaxsda ijobiy sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

3. Ta'lim va tarbiya

Ta'lim-tarbiya shaxs shakllanishini maqsadga muvofiq boshqaruvchi omildir. Tarbiya jarayonida axloqiy, estetik, mehnat va intellektual sifatlar rivojlanadi. To'g'ri tashkil etilgan pedagogik jarayon shaxsning har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi.

4. Shaxsning faolligi

Shaxsning o'z ustida ishlashi, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy faoliyati uning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Faol shaxs muhit ta'sirini tanqidiy qabul qiladi va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga intiladi.

Shaxs shakllanishining psixologik shart-sharoitlari:

Motivatsiya

Motivatsiya shaxs faoliyatining ichki harakatlantiruvchi kuchidir. Kuchli ichki motivlar shaxsni maqsad sari intilishiga, o'zini rivojlantirishga undaydi.

Emotsional-psixologik muhit

Ijoiy emotsional muhit shaxsning ruhiy barqarorligini ta'minlaydi. Oila va ta'lim muassasalarida qo'llab-quvvatlovchi, ishonchli muhit mavjud bo'lishi shaxs rivoji uchun muhim shart hisoblanadi.

Muloqot va ijtimoiy munosabatlar

Muloqot jarayonida shaxs ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi, o'z "Men"ini anglaydi. Sog'lom munosabatlar shaxsda empatiya, hamkorlik va mas'uliyat kabi sifatlarni rivojlantiradi.

O'z-o'zini anglash va refleksiya

Shaxsning o'z imkoniyatlarini baholashi, xatti-harakatlarini tahlil qilishi uning shaxs sifatida yetuklashuviga xizmat qiladi.

Shaxs shakllanishi ko'p qirrali jarayon bo'lib, irsiyat, muhit, ta'lim-tarbiya va shaxs faolligining uzviy uyg'unligi asosida amalga oshadi. Psixologik shart-sharoitlarning to'g'ri tashkil etilishi barkamol, mustaqil va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash imkonini beradi.

Shaxs go'daklik davrining ma'lum qismida individ hisoblanadi. "Individ" lotincha "Individium" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "bo'linmas, alohida, yagona" ma'nolarini anglatadi. Shaxsning shakllanishida harakat o'ziga xos omil hisoblanadi. Go'dak(chaqaloq) ham turl harakatlarni bajaradi. Biroq, bu harakatlar reflekslar bo'lib, ongli ravishda emas, balki shartsiz vashartli qo'zg'atuvchilarga javob tarzida yuz beradi. Shaxs revojlantirishining dastlabki bosqichi, go'dakda nutqning hosil bo'lishi, shuningdek, ongli ravishda harakatlar sodir bo'la boshlashi, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki kabi belgilar namoyon bo'ladi.

Shaxs deganda, muayyan jamiyatning a'zosi tushiniladi. Shaxsga aylanmog'i uchun ruhiy jihatdan taraqqiy etgan o'z xususiyatlari va sifatlari bilan farq qilmog'i lozim. Inson shaxs sifatida rivojlanishi va har ttomonlama kamolga yetishi uchun pedagogika fani shaxs rivojlanishining umumiy qonunyatlarini, unga ta'sir etadigan omillarni, rivojlanish jarayoniga aloqador bosqichlarni aniqlashi kerak.

Yuqorida "rivojlanish" tushunchasini ishlatdek. Endi bu tushunchaga kengroq ta'rif berib o'tamiz. Rivojlanish - shaxsning jismoniy, aqliy va boshqa xislatlarining takomillashuvini namoyon etadigan jarayon hisoblanadi. Bu xislatlar tug'ma va

keyinchalik erishilgan bo'ladi. Shaxsni barkamol inson bo'lib shakillanishida aniq maqsad asosida tashkil etilgan xatti- harakat , iroda sifatlarining kamol topishi , ayrim nuqsonlarning bartaraf etilishi , qiyinchiliklarni yengib o'tishga bo'lgan ishonch ham kata ahamiyatga egadir. Shaxs rivojlanishi quyidagi omillarga bog'liq.

1. Biologik omillar (Irsiyat)
2. Ijtimoiy omillar (Muhit)
3. Maqsadli tarbiya

Irsiyat – bu ota qoni yoki ajdodlariga xos bo'lgan biologik xususiyat va o'xshashliklarning nasl(bola)ga o'tish jarayoni.

Irsiyatdan o'tadigan belgilar -anatomik fizialogik tuzilish (yuz tuzilishlari) , qaddi- qomat, teri, soch hamda ko'zlarning rangi, shuningdek, nutq, tafakkur, ixtiyoriy harakatlar, mehnat, qobilyat, iste'dod alomatlari ham nasildan –nasilda o'tadi.

Muhit – bu shaxsning shakillanishiga ta'sir etuvchi tashqi voqia hodisalar majmuyidir. Agar bola o'z tug'ma layoqatiga mos sharoitda o'sib , zarur faoliyat bilan shug'illansa erta ko'rinib rivojlanishi, aksincha, bunday muhit bo'lmasa, yo'q bo'lishi yoki “mudroq” ligicililishi ha qolib ketishi ham mumkin. Pedagogika va psixologiya fanlari ijtimoiy muhit unda shaxsning shakillanish jarayoniga ta'sir roliga alohida e'tibor beradi. Ijtimoiy muhit abadiy emas, U ijtimoiy- tarixiy qonunyatlar ta'siri ostida o'zgarib boradi.

Oila muhiti o'ziga xos muhim tarbiyaviy ta'sirga ega jarayon hisoblanadi .

Maqsadli tarbiya jarayonida quyidagi holatlar vujudga keladi: 1. Tarbiya jarayonida kishi ongining o'sishi sodir bo'ladi. 2. Shaxs o'zining tug'ma kamchiliklarini ham kerakli tomonga o'zgartirish mumkin. 3. Tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'siri natijasida yuz beradigan kamchiliklarni tuzatish mumkin. 4. Tarbiya – istiqboldagi maqsadni belgilaydi. Shu bois, shaxs kamolotini ta'minlashda ilg'or rol o'ynaydi. Shaxsning rivojlanib, kamol topishi, hayotning hamma bosqichida bir xil bo'lmay, balki yosh xususiyatlari va hayot tajribalariga qarab har xil bo'ladi .

Tajriba jarayonida o'sayotgan yosh avlod o'ziga xos xususiyatlarni bilishi juda zarur. Bir xil yoshdagi o'quvchi – tarbiyalanuvchining har birining o'ziga xos xususiyatlari, psixik jarayonlari mavjuddir.

Muayyan yosh davrining guruhlanishi bolaning rivojlanish xususiyatlardagi o'zgarishlarga qarab ajratiladi. Go'daklik davrida bola birmuncha tajriba to'plashi bilan uning idrok va tasavvurlari tarkib topa boshlaydi. Olti yoshga qadar bola dunyoni, ijtimoiy borliqni to'laligicha idrok etadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning tafakkuri aniq tafakkur bo'lib, u nimalarni idrok etsa yoki tasavvur qilsa, o'sha narsalar haqida fikr yuritadi. kichik maktab yoshi o'quvchilari esa ijtimoiy borliq haqida muayyan tasavvurga ega bo'lsalar ham ro'y berayotgan voqia hodisalarning mohiyatini bilishga qiziqadi. Bu jarayonlar shaxsni rivojlanishida bolaning yoshiga

qarab uning psixikasini o'rganish va bolani barkamol shaxs qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlanishda o'smir yoshini ahamiyati juda katta hisoblanadi. O'smirlarda his – tuyg'ularni idora qilish layoqati endi-endi shakillana boradi. Bu uning xulqida namoyon bo'ladi. O'zining har narsaga jahli chiqishi, qo'pollik holatlari tez – tez yuz beradi. O'smirlarning bu xususiyati ko'proq bahs- munozara jarayonida ko'zga tashlanadi. Garchi o'z fikri asosli bo'lmasa-da uni maqullashga urinadi. 13-14 yoshlarda o'smirlarda burch hissi, mas'uliyat tuyg'usi o'sadi, birmuncha vazminlik bo'la boshlaydi. Bu davirda o'smirda maqsadga intilish, o'zi uchun ideal tanlash boshlanadi. O'smirlarda axloqiy e'tiqod shakillanib, o'ziga xos qarashlar tarkib topa boradi. Shunday qilib o'smirlar bilan munosabatda sabr-toqat, vazminlik zarur. Unga mustaqillik berish, buyruq emas, aksincha maslahat berish, do'st bo'lish ko'proq e'tibor qaratish yaxshi natija beradi.

O'smirlik davridan keyin o'spirinlik davri boshlanadi. O'spirinlar miya hujayralarining tuzilishida ro'y bergan takomillashish, asab tizimi va faoliyati mazmunining o'zgarishiga olib keladi. O'spirin faoliyatining asosiy turi o'qish bo'lib qolaveradi. Bilimlar hajmi kengayadi. Ular ijtimoiy munosabatlar, xususan oila, moliyaviy, me'yoriy, ma'muriy, xo'jalik, mehnat hamda jismoniy faoliyatlar mohiyatini teran tushinishga intila boshlaydilar. O'spirinlarda ehtiyoj hamda qiziqish o'z-o'zidan ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga bo'lgan rag'batni yuzaga keltiradi.

XULOSA

O'spirinlarda shaxsiy faoliyatni tashkil etishda mustaqillikka intilish yaqqol ko'zga tashlanadi, bu esa ularda ijtimoiy, xulqiy munosabatlar mazmunini o'zlashtirishda ijtimoiy faollik ko'rsatish ehtiyojini yuzaga keltiradi. O'spirinlardagi qiziqishni inobatga olgan holda ijtimoiy mazmundagi, xususan, "Biznis faoliyatini tashkil etishning ma'naviy asoslari", "Oldi-sotdi munosabatlarning axloqiy negizlari", "Yoshlar jinoyatchiligi va uning oqibatlar", "sening huquqiy burchlaring", "Nikoh – muqaddas bitim", "Terrozizm – mudhish jinoyat" kabi mavzularda smenar va treninglar tashkil qilish ularni kelgusida kamol topishida juda kata rol o'ynaydi.

Shaxs rivojlanishida bu kabi omillar juda ko'p. shunday ekan shaxsni shaxs bo'lishi uzviy ya'ni davomiy bo'ladi va barkamol shaxs darajasigacha ko'p bosqichlardan o'tadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Pedagogika (J. Hasanboyev, X. To'raqulova va b.) Toshkent nashr 2011.
2. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyoti poydevori. Toshkent Sharq nashriyot matbaa konserni, 1998.
3. Munavvarov A. K. pedagogika, Toshkent "O'qituvchi" 1996, 236-62b.
4. G'aybullayev N. va b. Pedagogika, Toshkent 2000.
5. Savin N. V. Pedagogika Toshkent "O'qituvchi" 1975.

-
6. V. Karimova “Ijtimoiy psixologiya va amaliyot” – Toshkent, 2009.
 7. Ziyonet

